

A vibrant, colorful illustration of a rainy day scene. A large rainbow arches across the sky, with rain falling. In the foreground, a large brown teddy bear stands on the left, waving. To its right, two orange foxes are running. A large tree with a smiling face stands on the right, with a blue rabbit peeking out from behind it. A blue umbrella is open near the tree. The background features a bright sun on the left and a rainbow on the right. The title text is overlaid on the scene.

EKOLOGIYA FAOLIYAT HILANMALARI

YAM DAVRI

KICHIK GURUH

“TASDIQLAYMAN”

_____-MTT direktori

Yoz davri kichik guruhlarga ekologiya faoliyatlari uchun ish reja

HAFTA KUNLARI	MAVZU
IYUN	
1-hafta	BOG‘CHAMIZDAGI GULZORLAR
2-hafta	XONA O‘SIMLIGI BILAN TANISHTIRISH
3-hafta	XONA O‘SIMLIKLARINI YUVISH
4-hafta	QUM VA SUVNING XUSUSIYATLARI BILAN TANISHTIRISH
IYUL	
1-hafta	SABZAVOT VA MEVALAR
2-hafta	“PREDMETLARNI RANGIGA KO‘RA AJRAT” O‘YINI
3-hafta	UY HAYVONLARINI AJRATISHGA O‘RGATISH
4-hafta	“NIMA YETISHMAYAPTI?” O‘YINI
AVGUST	
1-hafta	ODOBLI BOLA
2-hafta	TOP-CHI, MEN KIMMAN?
3-hafta	QUYOSHNKIDA MEHMONDA
4-hafta	DARAXTLAR BILAN TANISHAMIZ

BOG'CHAMIZDAGI GULZORLAR

Ta'limiy faoliyat maqsadlari

Ta'limiy: tarbiyalanuvchilarning so'z boyligini oshirish, ularni ijodiy fikrlashga o'rgatish;

Rivojlantiruvchi: ekalogik tarbiya va bolalarning tasavvur qilish va fikrlashlarini rivojlantirish;

Tarbiyaviy: jamoa bo'lib ishlash ko'nikmasini rivojlantirish.

Kerakli jihozlar: AKT, o'yinchoqlar, o'yinchoq idishlar to'plami.

Ta'limiy faoliyatning borishi

Tarbiyachi: - Assalomu alaykum, mening quvnoq va qiziquvchan bolajonlarim!

Bugun sizlar bilan xonamizdagi jihozlar haqida suhbatlashamiz. Qani, kim aytadi, xonamizda nimalar bor?

1-bola: - Xonamizda shkaf, kitob javoni, qo'g'irchoqlar, idish-tovoqlar, koptoklar bor.

2-bola: - Mana gilam, stol-stul, kartochkalar, turli o'yinchoqlar, karavotlar bor.

3-bola: - Xonamizda parda, televizor, koptok, o'yinchoq mashinalar, gullar ham bor.

4-bola: - Bolajonlar, kelinglar, sizlar bilan o'yin o'ynaymiz. Har biringiz

shu shkafdan birorta buyum olasiz va aynan o'sha buyum qachon va qanday ishlatilishini ayting.

4-bola: - Mening xonamda cho'mich bor. Cho'michni oyim ovqat suzganlarida ishlatadilar.

5-bola: - Mening xonamda o'yinchoq mashina bor. Dadam mashinada bizni bog'chaga olib keladilar.

6-bola: - Mening xonamda - kitoblar bor. Oyim bilan har kuni kitoblardagi rasmlarni tomosha qilamiz.

7-bola: - Mening xonamda - ovqat tayyorlov uning yordamida ovqat yeymiz.

8-bola: - Mening xonamda - sharbat tayyorloviga hoya, sharbat quyib ichamiz.

9-bola: - Mening qo'g'irchoqlarim bor. Har kuni qo'g'irchoq o'ynayman.

Tarbiyachi: - Bolajonlar, bizning xonamda bir jihozdan foydalanamiz.

Shuning uchun ularni asrashi kerak. Buning uchun zarur. Masalan, yumshoq ayiqchani oyog'ini uzib yuborsangiz, sizdan keyin bolalar kelguncha u yotib qolmay qolishadi. Idishlar jamlanmasini ham bir-biriga unib qo'yish zarur, toki narsa va buyumlar sizdan keyin boshqa bolalarga xizmat

qilsin. Bolalar, bog'chamizni qanday avaylashimiz kerak, qani, kim aytadi?

10-bola: - Xonalarni ozoda saqlasak, ularni avaylashimiz kerak.

11-bola: - O'yinchoqlarni o'ynab bo'lib joyiga qo'yib saqlasak, ularni avaylashimiz kerak.

12-bola: - Hovlidagi gullarni uzmasak, ularga suv quyib berishimiz kerak, bog'chamiz chiroyli boladi.

Tarbiyachi: - To'ppa-to'g'ri, bolajonlar, biz uyimizni avaylashimiz kerak, bog'chamizni ham xuddi shunday avaylashimiz zarur. Chunki u yerda bog'chamizni o'tkazamiz, o'yinlar o'ynaymiz. Hozir sizlarga Quddat Hikmat qalamiga mansub "Bog'cham" nomli she'rni aytib beraman, sizlar esa diqqatingizni monitorga qaratib o'qing. Tashkent bog'chasi xshagan bir bola she'rda ifodalangan ishlarni bajarayotganini ko'rasiz.

Tarbiyachi: - Bolalar, endi sizlar bilan badantarbiya daqiqasini o'tkazamiz.

Men she'r aytib qo'lim bilan xatti-harakatlarni ko'rsataman, sizlar esa bu harakatlarni bajarayotgan harakatlarni takrorlaysiz.

Quyong kabi sakraymiz, (Qo'llar ko'krak ustiga qo'yili, barmoqlar yarim yopiladi.)

O'ngga, chapga qaraymiz. (O'ng va chapga qaratiladi.)

Agar ehtiyot bo'lmasak, (Qo'llar tushiriladi.)

Bo'riga yem bo'lamiz. (Qo'llar orqaga qilib o'zlarini quchoqlaydilar.)

Tarbiyachi: - Bolajonlar, endi mana bu savollarga javob beringlar-chi.

Nima uchun bog'chamizni ozoda tutishimiz kerak?

Uyimizni toza saqlash uchun nimalar qilishimiz kerak?

Guruhimizni yanada chiroyliroq bo'lishi uchun qaysi jihozlarning joyini o'zgartirsak bo'ladi?



XONA O'SIMLIGI BILAN TANISHTIRISH

Maqsad: Ekologik tarbiyani rivojlantirish. Bolalarni o'simliklarning tashqi belgilarini boshqa o'simliklar bilan taqqoslab, so'z orqali ta'riflab berish va tabiat uchun foydalarini o'rgatish. Tarbiyachi tavsiya etgan reja bo'yicha ta'riflashga o'rgatish. Bolalarni o'simliklarning nomi to'g'risidagi bilimlarini mustahkamlash. Bolalarni xona o'simligining yangi turi — xinagul bilan tanishtirish. Bolalarning o'simlikka bo'lgan qiziqishini, kuzatuvchanligini rag'batlantirib borish.

Kutilayotgan natija:

Bolalarni o'simliklarning tashqi belgilarini boshqa o'simliklar bilan taqqoslab, so'z orqali ta'riflab berishga o'rganadilar. Xinagul bilan tanishadilar. Bolalarning o'simlikka bo'lgan qiziqishlari oshadi.

Faoliyatga tayyorgarlik. Bolalarga tanish bo'lgan ikkita xona o'simligining birini bolalarning stoli ustiga, ikkinchisini, deraza oldiga qo'yib qo'yish. Xinagul qo'ymay turiladi.

Faoliyatning birinchi bosqichi. Bolalar o'z joylarida o'tiradilar. Tarbiyachi: bolalar, bu xona o'simligining nomi nima? U kattami? Kichikmi? Barglarining shakli, katta-kichikligi, rangi, qanday bo'lga qismi qanday? Bu o'simliklarning guli bormi, ular qanday? Fikusni ta'riflab chiqishni aytadi va bolalardan hajmini so'raydi. Bolalar javob berishadi: «U katta, taxtga qo'yiladi» va fikusning boshqa hamma tashqi belgilarini ta'riflab chiqishni aytadi: «U kichik, to'g'ri, baland, barglari katta, ovalsimon».

Shunda xona o'simligi ko'rik chiqiladi. Tarbiyachi bolalarga xinagulni ko'rsatib, qanday dard bilan bolalar bugun biz mana bu yangi gul bilan tanishaymiz deb ataladi. Uning gullari judayam ko'p. Mana bu gul ham boshqa gullar to'g'risida gapirganinglar singari, fikusning to'g'risida xinagul yoqdimi, uni xonamizdagi boshqa gulga qo'shib qo'yamiz. Faqat bu gul yorug'lik va quyoshni ko'radi va yaxshi o'sadi. SHuning uchun uni quyoshga qo'yish kerak, yon yon joyga qo'yamiz. U xonamizdagi boshqa gulga qo'shib qo'yiladi. Qani aytinglar-chi, xinagul boshqa gullarga nima o'xshaydi-yu, nimasi bilan o'xshamaydi?» Bolalar taqqoslash orqali ularning har biriga xos belgilarini bilib oladilar. Faoliyatning ikkinchi bosqichi o'tkaziladi. Birinchi variantda «Nimani gapiraman, top» o'yinida chaqirilgan bolalar gullar topib beradi, ikkinchisi topadi, (o'yin guruh xonasidagi hamma gul ta'riflab topilganicha o'tkaziladi).

O'yinning ikkinchi variantida (Qaysi gulning o'rnini almashtirish uchun chaqirilgan bola ko'zini yumib yoki boshqa tomonga o'girilib turadi. Shunda tarbiyachi o'rnini almashtirib qo'yadi, bola qaysi gulning o'rnini almashtirishini aytib berish kerak. (O'yin 4—5 marta takrorlanadi). Keyingi faoliyatlarda bunday o'yinlar bolalar uchun kartochnalar bilan ham o'tkazish mumkin.

Rasmi tasvirlangan kartochnani o'sha gulning oldiga qo'yish, bir xona o'simligi haqida hokazo.

Eslatma: Bolalarda tabiat burchagidagi o'simliklarga nisbatan qiziqishini oshirishda ularning kuzatuvchanligini o'stirishda, gullarni asrab-avaylash, parvarish qilishni o'rgatishda tarbiyachining namunasi muhim rol o'ynaydi. Tarbiyachi o'zi o'simliklarni mehr-muhabbat bilan parvarish qilishi, ularga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish, kuzatuvchan bo'lib, o'simlikning o'sishi va rivojlanishida yuz beradigan o'zgarishlarni o'z vaqtida ko'ra bilishi va bu o'zgarishlarni zarur qiziqish, his-hayajon bilan bolalarga so'zlab berishi kerak va vaqti-vaqti bilan bolalarni o'simlik oldiga chaqirib, unda yuz bergan o'zgarish ustida bolalar bilan gaplashib olishadi. Bu bolalarda o'simliklarga nisbatan barqaror qiziqishni uyg'otadi.

Bolalar bilimlarini mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

-Qaysi gulni kuzatdik? -Bugun qaysi gul bilan tanishdik?

-Xinagul yorug'lik va quyoshni yaxshi ko'radimi? -Gullar bilan qanday o'yin o'ynadik?



veb-saytimiz: Zokirjon.com

**Zokirjon.com veb-sayti orqali o'zingiz uchun
kerakli ma'lumotlarni yuklab oling.**

Zokirjon Admin bilan

**+99891-328-88-38 nomerga telegramdan
yozishingiz yoki telegramdan jek567 izlab
telegramdan yozishingiz so'raladi.**

**Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida
javob beriladi.**

**Kichik guruhlarga yoz davri ekologiya
faoliyat ishlanmalarini to'liq holda olish
uchun
telegramdan yozing.**




Telegram kanalimiz:

@maktabgacha_tt

To'lov uchun: HUMO 9860230104973329

Plastik egasi Nabiyev Zokirjon



DIQQAT!!!

**Bu hujjatni hech kimga tarqatmaslik
sharti bilan olishingiz mumkin.**

Sizga bu **OMONAT qilib beriladi.**

To'liq holda olganingizdan so'ng:

Faqat o'zingiz uchun foydalaning.

**Hech kimga bermang hattoki eng yaqin
insoningizga ham.**

Internet veb-saytlarga joylamang.

**Telegram orqali kanal va gruppalarga
tarqatmang.**

**OMONATGA HIYONAT
QILMANG.**